

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Aseмова Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Ulug'bek Abraxmatov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI	244
Usmonov Parviz Shavkatovich	
О'ZBEKISTONDA NAQD PULLARNING AYLANMASINI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	249
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ	258
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOIIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI	263
Xalimov Shaxboz Xalimovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI

Xalimov Shaxboz Xalimovich

i.f.f.d. dotsent v.b.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

E-mail: xalimovshaxboz8545@gmail.com

Tel: +998997789888



Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lovlar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining turizm industriyasi rivojlanishiga hamda xizmatlar sifatini oshirishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlarining turizm sohasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, turizm xizmatlari, samaradorlik, raqamli transformatsiya, onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lovlar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt, Big Data, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan to improve the efficiency of tourism services in the context of the digital economy from both theoretical and practical perspectives. The study highlights the impact of online booking systems, electronic payment technologies, digital platforms, artificial intelligence, and Big Data on the development of the tourism industry and the improvement of service quality. Furthermore, the significance of digital transformation processes in enhancing competitiveness and increasing the efficiency of tourism services is substantiated.

Keywords: digital economy, tourism services, efficiency, digital transformation, online booking systems, electronic payments, digital platforms, artificial intelligence, Big Data, competitiveness.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы реформы, реализуемые в Узбекистане в целях повышения эффективности туристических услуг в условиях цифровой экономики. В исследовании раскрыто влияние систем онлайн-бронирования, электронных платежей, цифровых платформ, искусственного интеллекта и технологий Big Data на развитие туристической индустрии и повышение качества услуг. Кроме того, обосновано значение процессов цифровой трансформации в повышении конкурентоспособности и эффективности туристических услуг.

Ключевые слова: цифровая экономика, туристические услуги, эффективность, цифровая трансформация, системы онлайн-бронирования, электронные платежи, цифровые платформы, искусственный интеллект, Big Data, конкурентоспособность.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi global miqyosda barcha tarmoqlar qatori turizm sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda turizm xizmatlari an'anaviy shakllardan raqamli platformalar, mobil ilovalar, elektron bronlash tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi servislar orqali ko'rsatiladigan zamonaviy xizmatlar tizimiga transformatsiyalanmoqda. Ushbu jarayon turizm industriyasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, vaqt va xarajatlarni tejash, turistlar uchun qulayliklar yaratish hamda sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirish imkonini bermoqda. Shu bois raqamli texnologiyalarning turizm xizmatlari samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb va muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turizm xizmatlari samaradorligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib, u nafaqat xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkorligi va sifati, balki turistlar oqimining ortishi hamda turizm daromadlarining ko'payishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasiga onlayn

xizmatlar, elektron to'lov tizimlari, raqamli marketing vositalari va ma'lumotlarni tahlil qilish platformalarining joriy etilishi xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirishga, boshqaruv samaradorligini oshirishga hamda turistlar ehtiyojlariga tezkor va moslashuvchan javob berishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasining barqaror tiklanishi raqamli yechimlarning ahamiyatini yanada oshirdi.

Mavzuning dolzarbligi 2022-yildan keyingi davrda O'zbekistonda turizmni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlar bilan yanada mustahkamlandi. Jumladan, turizm sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish va raqamlashtirishga qaratilgan Prezident farmonlari, shuningdek, turizm xizmatlarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarorlari ushbu yo'nalishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Mazkur hujjatlar turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish, elektron servislarni kengaytirish va "smart tourism" tashabbuslarini rivojlantirish orqali turizmning milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy mexanizmlarini aniqlash, ularning xizmatlar sifati va turistlar oqimiga ta'sirini baholash hamda mavjud ilmiy yondashuvlarni boyitishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari turizm industriyasini modernizatsiya qilish, innovatsion raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xizmatlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Quyidagi adabiyotlar sharhi "Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili" mavzusini ilmiy manbalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yoritadi.

D. Buhalis va R. Lawning "Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years on and 10 Years after the Internet – The State of eTourism Research" nomli maqolasida turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining biznes modellari va boshqaruv tizimlariga ta'siri yigirma yillik ilmiy adabiyotlar kesimida umumlashtirilgan. Mualliflar raqamlashtirish turizm qiymat zanjirida shaffoflikni oshirishi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, xizmatlarni standartlashtirishi va raqobat muhitini rivojlantirishini asoslaydilar. Shu orqali ular islohotlar samaradorligini baholashda e-turizm indikatorlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadilar. Biroq texnologiyalarni joriy etish natijalarini sabab-oqibat munosabatlari asosida baholovchi empirik tadqiqotlar sonining cheklanganligi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi [1].

U. Gretzel va hammualliflarining "Smart Tourism: Foundations and Developments" nomli maqolasida "smart tourism" tushunchasi nazariy jihatdan asoslanib, ma'lumotlarni yaratish, qayta ishlash va almashish jarayonlari orqali "smart destinatsiya – smart biznes ekotizimi – smart tajriba" triadasi shakllantiriladi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda amalga oshirilayotgan turizm islohotlarini nazariy jihatdan asoslash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mualliflar, ayniqsa, ma'lumotlar almashinuvi va institutsional hamkorlik mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilishi smart turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Shu jihatdan davlat, biznes va raqamli platformalar hamkorligining natijadorligini baholashga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [2].

T. Rahmonov va A. Hamdamovlarning "Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasi rivojlanishiga ta'siri" nomli maqolasida turizmni raqamlashtirishning mazmuni, asosiy mexanizmlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Mualliflar raqamli platformalar, onlayn servislari va elektron kommunikatsiya kanallari turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish hamda bozor imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini asoslaydilar. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda turizmning raqamli transformatsiyasi yo'nalishlarini tizimlashtirishga muhim hissa qo'shadi. Kelgusida ushbu texnologiyalarning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash masalasi yanada chuqurroq tadqiq etilishi mumkin [3].

N. Toirovaning "Turizm korxonalarida raqamlashtirish asosida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish" nomli maqolasida sun'iy intellekt, Big Data hamda VR/AR texnologiyalarining xizmat sifati va biznes jarayonlarini takomillashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Muallif raqamlashtirish xarajatlarni optimallashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini asoslaydi. Shu bilan birga, texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash, kibernetika xarajatlarini hisobga olish va kadrlar kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi [4].

G. I. Alievaning "Xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari" nomli maqolasida raqamli iqtisodiyotning xizmatlar sektoriga, jumladan, turizm va mehmonxona biznesiga ta'siri



tahlil qilingan. Muallif ERP tizimlari va raqamli marketing vositalari orqali xizmatlar sohasida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarni yoritadi. Tadqiqotning ahamiyati hududlar misolida raqamli transformatsiyaning institutsional omillarini tahlil qilganida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, hududlar kesimida raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi va uning xizmatlar samaradorligiga ta'sirini miqdoriy baholash bo'yicha izlanishlar istiqbolli hisoblanadi [5].

H. A. Nazarovning "Turizm sohasida raqamli platformalar va elektron xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi" nomli maqolasida E-Visa tizimi, onlayn bronlash platformalari hamda elektron xizmatlarning turizm qiymat zanjiriga integratsiyalashuvi va iqtisodiy samaralari tahlil qilingan. Tadqiqot turizm xizmatlarini platformalashtirishning institutsional va iqtisodiy afzalliklarini ochib beradi. Shu bilan birga, yagona platformalar samaradorligini baholash uchun standart KPI ko'rsatkichlari va metodologik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-114-sonli Farmoni¹ turizm boshqaruvida institutsional islohotlarni jadallashtirishga, boshqaruv samaradorligini oshirishga hamda sohada o'zaro muvofiqashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur hujjat raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy asoslarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-dekabrda "Turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli Qarori² turizm xizmatlarini yagona raqamli ekotizimga integratsiyalashning institutsional asoslarini belgilab berdi. Mazkur hujjat bronlash, chiptalashtirish, turpaketlar va boshqa xizmatlarni yagona platformada birlashtirish orqali soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qaror turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilganligini namoyon etadi hamda platformaviy yondashuvning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda turistlar oqimini keskin oshirish va turistik xizmatlar hajmini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni³ turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Farmonda turistlar oqimini oshirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur hujjat turizm samaradorligini aniq iqtisodiy natijalar bilan bog'lash hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada faollashtirish uchun muhim normativ asos bo'lib xizmat qiladi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuning nazariy asoslarini shakllantirish uchun ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi hamda xalqaro va mahalliy tajribalar qiyosiy tahlil asosida baholandi. Shuningdek, turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorlikka ta'siri ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida tahlil qilinib, mavjud yondashuvlarning afzalliklari hamda rivojlanish istiqbollari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalari hamda ularning turizm oqimiga ta'sirini batafsil ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Xususan, onlayn xizmatlar, elektron bronlash tizimlari, raqamli marketing va innovatsion platformalarning joriy etilishi natijasida turistik xizmatlar sifati, tezkorligi hamda xalqaro turistlar oqimida yuz berayotgan o'zgarishlar statistik-dinamik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, mavjud muammolar va ilmiy bo'shliqlar aniqlanib, kelgusida xizmatlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantiriladi.

2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi ko'rsatkichlarning yildan-yilga barqaror o'sib borayotganini namoyon etadi. Xususan, 2020-yilda bu ko'rsatkich 1 504,1 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 1 881,4 ming nafarga yetgan. 2022-yilda esa turistlar soni keskin oshib, 5 232,8 ming nafarga ko'tarilgan. Ushbu holat pandemiyadan keyingi davrda turizm


1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.07.2023 yildagi PF-114-son <https://www.lex.uz/docs/-6547477>.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.12.2024 yildagi 820-son <https://lex.uz/ru/docs/-7252698>.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.05.2025 yildagi PF-87-son <https://lex.uz/ru/docs/-7531559>.

sohasining izchil tiklanishi va xalqaro qatnovlarning qayta faollashuvi bilan izohlanadi (1-rasm).


2023–2024-yillarda ham oʻsish tendensiyasi davom etib, turistlar soni mos ravishda 6 626,3 ming va 7 957,2 ming nafarga yetgan. Mazkur koʻrsatkichlar Oʻzbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, vizasiz rejimlarning kengayishi, xizmatlar sifatining yaxshilanishi hamda raqamli texnologiyalar asosida turistik infratuzilmaning rivojlanishi natijasida turistlar oqimi izchil oshib borayotganini koʻrsatadi (1-rasm).



1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi, ming nafar.

Ayniqsa, elektron bronlash tizimlari, onlayn marketing vositalari hamda “smart tourism” yondashuvlarining joriy etilishi mamlakatning turistik jozibadorligini oshirgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur innovatsion yechimlar turistlar uchun qulayliklarni kengaytirish, xizmatlar sifati va tezkorligini yaxshilash hamda turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, diagramma Oʻzbekiston turizm sohasining soʻnggi yillarda barqaror va jadal rivojlanayotganini hamda kelgusida yuqori oʻsish salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa turizmni raqamlashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini va ularning mamlakat turizm salohiyatini yanada yuksaltirishdagi muhim ahamiyatini koʻrsatadi (2-rasm).



2-rasm. Sayohat maqsadlari boʻyicha kelgan xorijiy fuqarolarning taqsimlanish dinamikasi (yanvar-dekabr, ming kishi).



Diagrammada O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan chet el fuqarolarining 2020–2024-yillar davomida safar maqsadlari bo'yicha dinamikasi aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori o'sish sur'ati "qarindoshlarni yo'qlash" maqsadida tashrif buyurganlar hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, 2020-yilda 1 321,4 ming nafarni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2022-yilda keskin oshib, 4 657,6 ming nafarga, 2024-yilga kelib esa 6 105,3 ming nafarga yetgan. Mazkur holat pandemiyadan keyingi davrda migratsion aloqalar va oilaviy tashriflarning faollashgani, shuningdek, transport qatnovlarining to'liq tiklangani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalish turizm oqimida eng katta ulushni egallayotganini ham ko'rsatadi.

Diagramma ma'lumotlari "bo'sh vaqt va dam olish" maqsadida tashrif buyurgan turistlar sonining ham izchil o'sib borayotganini ko'rsatadi. Jumladan, 2020-yilda 129,3 ming nafarni tashkil etgan ko'rsatkich 2022-yilda 392,2 ming nafarga, 2023-yilda 773,3 ming nafarga hamda 2024-yilda 1 184,4 ming nafarga yetgan. Bu holat O'zbekistonda turistik infratuzilmaning izchil rivojlanishi, xizmatlar sifatining oshishi, viza tartib-taomillarining soddalashtirilishi hamda raqamli marketing vositalari va onlayn platformalar orqali mamlakat turistik salohiyatining faol targ'ib etilishi natijasida dam olish turizmi jadal sur'atlarda rivojlanayotganini anglatadi.

Shuningdek, "xizmat" va "tijorat" maqsadlari bo'yicha ham barqaror o'sish kuzatilmoqda. Bu esa turizm bilan bir qatorda biznes va xizmat safarlarining ham kengayib borayotganidan dalolat beradi hamda mamlakatning iqtisodiy va investitsiyaviy jozibadorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

"Davolanish" va "o'qish" yo'nalishlari bo'yicha keluvchilar soni nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ushbu segmentlarda ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Masalan, davolanish maqsadida tashrif buyurganlar soni 2020-yildagi 15,0 ming nafardan 2024-yilda 104,9 ming nafarga yetgan bo'lsa, o'qish maqsadida keluvchilar soni 4,7 ming nafardan 25,1 ming nafarga oshgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda tibbiy turizm va ta'lim turizmi yo'nalishlarining bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini hamda ushbu sohalarning istiqboli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, diagramma turizm oqimi tarkibining tobora diversifikatsiyalanib borayotganini yaqqol namoyon etadi. Ya'ni, turistik tashriflar tarkibida nafaqat qarindoshlarni yo'qlash, balki dam olish, biznes, davolanish va ta'lim kabi yo'nalishlarning ham ulushi ortib bormoqda. Bu esa O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini hamda turizm xizmatlari bozorining kengayib borayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval

Turizmni raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish bo'yicha islohotlar jadvali⁴

Yil	Asosiy hujjat yoki yo'nalish	Raqamli iqtisodiyot nuqtayi nazaridan asosiy yo'nalishlar
2020	Turizmni rivojlantirish bo'yicha milliy strategik hujjatlarning yangilanishi	Turizmni raqamlashtirish konsepsiyasini amalga oshirish va dastlabki onlayn xizmatlarni joriy etish, shuningdek, turistik axborot portallarini takomillashtirish ishlari boshlandi.
2021	Elektron hukumat xizmatlarini kengaytirish	Onlayn xizmatlar tarmog'ini kengaytirish, elektron bronlash va raqamli to'lov tizimlarini integratsiyalash hamda turistlar uchun elektron ma'lumotlar bazalarini shakllantirish ishlari amalga oshirildi.
2022	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-114-sonli Farmoni (2022-yil 27-iyul) ⁵	Turizm sohasida boshqaruvni raqamlashtirish, turistlar uchun yagona elektron platformalar, interaktiv servislar va zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish choralarini belgilandi.
2023	Vazirlar Mahkamasining 820-sonli Qarori (2023-yil 7-dekabr) ⁶	Turizm xizmatlarini yagona raqamli platformaga integratsiyalash, onlayn bronlash tizimlarini rivojlantirish, xizmatlar monitoringini takomillashtirish va elektron servislar samaradorligini oshirish bo'yicha mexanizmlar joriy etildi.
2024	Turizmni raqamli marketing orqali targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar	Raqamli marketing strategiyalari, SMM kampaniyalari, virtual turizm kontentlari va mobil ilovalarni rivojlantirish hamda ularni xalqaro auditoriyaga yo'naltirish ishlari faollashtirildi.
2025	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-sonli Farmoni (2025-yil 15-may) ⁷	Turizm xizmatlari hajmini oshirish, raqamli yechimlar orqali xizmatlar sifatini yaxshilash, statistik ma'lumotlar bazalarini rivojlantirish, onlayn bronlash va interaktiv xizmatlarni kengaytirish vazifalari belgilandi.

4 Muallif tomonidan yaratilgan.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.07.2023 yildagi PF-114-son <https://www.lex.uz/docs/-6547477>.

6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.12.2024 yildagi 820-son <https://lex.uz/ru/docs/-7252698>.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.05.2025 yildagi PF-87-son <https://lex.uz/ru/docs/-7531559>.

2025–2026	Raqamli turizm ekotizimini mustahkamlash bo'yicha yo'l xaritasi	Platformalararo integratsiya, data-analitika, sun'iy intellekt texnologiyalari va mijoz tajribasini raqamlashtirishga qaratilgan strategik rejalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.
2026 va undan keyingi davr	"Smart tourism" tashabbuslarini chuqurlashtirish	Virtual haqiqat (VR), Big Data, IoT va chatbot texnologiyalari orqali turizm xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish hamda global raqamli bozorga integratsiyalash maqsad qilingan.

2020-yildan boshlab O'zbekistonda turizm sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Dastlabki bosqichda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron hukumat xizmatlarini kengaytirish hamda turistik axborot portallarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur davrda turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashning dastlabki asoslari yaratilib, onlayn bronlash tizimlari, elektron ma'lumotlar bazalari va raqamli to'lov tizimlarini integratsiyalash jarayonlari shakllantirildi. Natijada ushbu bosqich turizm xizmatlarini raqamlashtirish uchun zarur bo'lgan texnik va institutsional poydevorni yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2022-yildan boshlab turizm sohasini raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan islohotlar yanada tizimli va huquqiy jihatdan mustahkam tus oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-114-sonli Farmoni⁸ turizm boshqaruvini raqamlashtirish, interaktiv xizmatlarni joriy etish hamda turizm xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo'ldi. Mazkur farmon turizm sohasida raqamli platformalar va elektron servislar orqali xizmatlarni modernizatsiya qilish zaruratini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi. Natijada turizmni rivojlantirish jarayonida raqamli iqtisodiyot vositalarining ahamiyati yanada ortib, xizmatlar sifati, shaffofligi va qulayligi sezilarli darajada yaxshilandi.

2023–2025-yillarda turizm xizmatlarini yagona raqamli platformaga integratsiyalash, raqamli marketing vositalarini rivojlantirish hamda "smart tourism" tashabbuslarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar yanada faollashdi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-dekabrda "Turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli Qarori⁹ turizm xizmatlarini platformalashtirish orqali bronlash tizimlari, xizmatlar monitoringi va turistlarga ko'rsatiladigan servislarni yagona raqamli tizimga birlashtirishni nazarda tutdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda turistlar oqimini keskin oshirish va turistik xizmatlar hajmini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni¹⁰ esa turistlar oqimini oshirish va turizmning milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirishda raqamli yechimlarning strategik ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Umuman olganda, 2020-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlar O'zbekistonda turizm sohasining raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratdi. Ushbu islohotlar turizm xizmatlari samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2020-yildan boshlab O'zbekistonda turizm sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlabki bosqichlarda elektron xizmatlar va raqamli infratuzilmani shakllantirishga ustuvor e'tibor qaratilgan bo'lsa, 2022-yildan keyin qabul qilingan farmon va qarorlar turizmni boshqarish hamda xizmat ko'rsatish tizimini raqamlashtirish jarayonlarini davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida mustahkamladi. Natijada turistik xizmatlarning tezkorligi, shaffofligi va qulayligi sezilarli darajada oshib, turistlar oqimining barqaror o'sishiga erishildi.

Turizm xizmatlarini yagona raqamli platformaga integratsiyalash, raqamli marketing vositalarini keng qo'llash hamda "smart tourism" tashabbuslarini rivojlantirish orqali turizm industriyasining raqobatbardoshligi yanada kuchaytirildi. Mazkur jarayonlar O'zbekistonning turizm salohiyatini xalqaro bozorda keng targ'ib qilish, xizmatlar sifatini yaxshilash va turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligini yanada oshirish uchun hududlar kesimida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini yanada takomillashtirish hamda raqamli kompetensiyalarni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.07.2023 yildagi PF-114-son <https://www.lex.uz/docs/-6547477>.

9 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.12.2024 yildagi 820-son <https://lex.uz/ru/docs/-7252698>.

10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.05.2025 yildagi PF-87-son <https://lex.uz/ru/docs/-7531559>.



Umuman olganda, turizmni raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda va sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq kelgusida samaradorlikni yanada oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni chuqurroq joriy etish, zamonaviy monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniq KPI ko'rsatkichlari asosida baholash, islohotlarning uzoq muddatli natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar asosida turizm xizmatlari samaradorligini yanada oshirish bo'yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, barcha turistik hududlarda yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari va raqamli servislarni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani davlat-xususiy sheriklik asosida kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bronlash konversiyasi, xizmat ko'rsatish vaqti, mijozlar qoniqishi va xizmatlar sifati kabi ko'rsatkichlarga asoslangan yagona milliy KPI va monitoring tizimini joriy etish turizm xizmatlari samaradorligini baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, turizm korxonalarida xodimlari uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha muntazam treninglar, malaka oshirish dasturlari va amaliy o'quv kurslarini tashkil etish raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, Big Data va "smart tourism" texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish maqsadida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik turizm markazlarida pilot loyihalarni amalga oshirish hamda ularning muvaffaqiyatli tajribasini respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

D. Buhalis and R. Law, "Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet—The state of eTourism research," *Tourism Management*, vol. 29, no. 4, pp. 609–623, 2008. doi: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0261517708000162>.

U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang, and C. Koo, "Smart tourism: foundations and developments," *Electronic Markets*, vol. 25, pp. 179–188, 2015. Available: <https://link.springer.com/article/10.1007/s12525-015-0196-8>.

T. Rahmonov and A. Hamdamov, "Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasi rivojlanishiga ta'siri," *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, vol. 4, no. 1, 2024. Available: <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/134>.

N. Toirova, "Turizm korxonalarida raqamlashtirish asosida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish," *University Research Base (Kokand University)*, 2025. Available: <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/949>.

G. I. Alieva, "Xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari," *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, vol. 3, no. 3, pp. 503–509, 2023. Available: https://oriens.uz/media/journalarticles/79_Alieva_G.I._503-509.pdf.

H. A. Nazarov, "Turizm sohasida raqamli platformalar va elektron xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi," *"Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali*, no. 13, 2025. Available: https://api.infocom.uz/api/v1/magazine/download-article?article_id=1219.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-114-son Farmoni, 2023-yil 27-iyul. Available: <https://lex.uz/uz/docs/-6547477>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, "Turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli Qarori, 2024-yil 7-dekabr. Available: <https://lex.uz/docs/7253950>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "2025–2026-yillarda turizmning iqtisodiyotdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni, 2025-yil 15-may. Available: <https://lex.uz/ru/docs/7531353>.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100